



## Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

### SHARQ MASH'ALI

Jurnal veb-sayti:  
<https://orientalstudies.uz/index.php/ot>



## XITOY XALQ RESPUBLIKASI TRANSPORT SOHASIDA AMALGA OSHIRILGAN IQTISODIY ISLOHOTLAR TAHLILI

*Mirabbos Mirg'iyyosov*

*Tadqiqotchi*

*Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti*

*Toshkent, O'zbekiston*

### MAQOLA HAQIDA

**Kalit so'zlar:** Transport vositalari, Xitoy Xalq Respublikasi, islohotlar, savdo munosabatlari, iqtisodiyot.

**Annotatsiya:** Maqolada Xitoy Xalq Respublikasi transport sohasida amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlar tahlil qilingan. Aynan transport sohasini rivojlanirish bo'yicha bugungi kunda iqtisodiyoti tobora jadal sur'atlar bilan rivojlanib borayotgan Xitoyda ushbu soha mutanosib ravishda rivojlanib bormoqda. Chunki, bizga yaxshi ma'lumki, Xitoy dunyoda aholisining soni jihatidan birinchi o'rinni egallaydi. Bugungi kunda ushbu aholisining soni jihatlari bir tomondan iqtisodiy rivojlanishining bir asosiy bo'lib qaraladigan bo'lsa, ikkinchi tomondan, ushbu aholini ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan ta'minlash hukumat oldida turgan eng dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Albatta bugungi kunga kelib Xitoyda boshqa rivojlangan davlatlar singari transportning barcha turlari mavjud va ushbu transport vositalaridan kundalik foydalanish, transport vositalarining texnologik nuqtai nazaridan rivojlanganlik darajasi, unda xizmatlar ko'rsatish bo'yicha sifat ko'rsatkichlari bo'yicha aksariyat rivojlangan davlatlardan ham ilgarilab ketilgan.

## ANALYSIS OF ECONOMIC REFORMS CARRIED OUT IN THE TRANSPORT SECTOR OF THE PEOPLE'S REPUBLIC OF CHINA

*Mirabbos Mirg'iyyosov*

*Researcher*

*Tashkent State University of Oriental Studies*

*Tashkent, Uzbekistan*

### ABOUT ARTICLE

**Key words:** Vehicles, People's Republic of China,

**Abstract:** The article analyzes the economic reforms implemented in the transport sector of the People's Republic

reforms, trade relations, economy.

of China. It is precisely because of the development of the transport sector that this sector is developing proportionately in China, whose economy is developing more and more rapidly today. Because, as we know, China ranks first in the world in terms of population. Today, on the one hand, the numerical aspect of this population is considered as one of the main factors of economic development, and on the other hand, social and economic provision of this population is one of the most urgent tasks facing the government. Of course, today, like other developed countries, China has all types of transportation, and the daily use of these vehicles, the level of development of vehicles from the technological point of view, and the quality indicators of service provision are more advanced than most developed countries..

## АНАЛИЗ ЭКОНОМИЧЕСКИХ РЕФОРМ В ТРАНСПОРТНОЙ СФЕРЕ КИТАЙСКОЙ НАРОДНОЙ РЕСПУБЛИКИ

*Мираббос Мирзиёсов*

*Исследователь*

*Ташкентский государственный университет востоковедения*

*Ташкент, Узбекистан*

### О СТАТЬЕ

#### **Ключевые слова:**

Транспортные средства, Китайская Народная Республика, реформы, торговые отношения, экономика.

**Аннотация:** В статье анализируются экономические реформы, реализуемые в транспортном секторе Китайской Народной Республики. Именно благодаря развитию транспортного сектора пропорционально развивается этот сектор в Китае, экономика которого сегодня развивается все более быстрыми темпами. Потому что, как мы знаем, Китай занимает первое место в мире по численности населения. Сегодня, с одной стороны, численный аспект этого населения рассматривается как один из основных факторов экономического развития, а с другой стороны, социально-экономическое обеспечение этого населения является одной из наиболее актуальных задач, стоящих перед правительством. Конечно, сегодня, как и в других развитых странах, в Китае есть все виды транспорта, и ежедневное использование этих транспортных средств, уровень развития транспортных средств с технологической точки зрения, показатели качества оказания услуг более продвинуты, чем у большинства развитых стран.

### KIRISH

Aksariyat iqtisodiyoti rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar singari Xitoy hukumati tomonidan bugungi kunda transport sohasini rivojlantirish uchun salmoqli hissa qo'shib kelmoqda. Sababi, ushbu sohaning rivojlanib borishi bevosita iqtisodiyotning rivojlanishiga

ijobiy ta'sir ko'rsatib kelmoqda, birgina misol transport sohasida ishlaydigan ishchilarning soni ko'payishi, transport sohasidan tushadigan pul tushumlarining ko'payishi, ushbu sohasining rivojlanishi asosida yangi zamonaviy sohalarning yaratilishi (axborot kommunikatsion sohalari, dizayin sohasi va boshqalar) shuningdek, ilmiy-tadqiqot faoliyatlarning tobora rivojlanishi va boshqa qator ustuvorliklarning yaratilishiga zamin yaratib bermoqda.

Mamlakatning transport sohasini rivojlantirish uchun avvalo hukumat tomonidan amalga oshirilayotgan iqtisodiy mexanizmlar orqali ushbu sohaga ajratilayotgan pul mablag'lari hisobida ko'rinishi mumkin, o'z navbatida ajratiladigan mablag'lar davlatning doimo shakllantirib boriladigan byudjeti hisobidan amalga oshiriladi.

Ma'lumki, davlat byudjeti asosan ikki qismdan iborat bo'ladi, bular daromadlar qismi va ikkinchisi bu xarajatlar qismi hisoblanadi. Daromadlar qismi pul tushumlari, ya'ni soliqlar, bojlar, majburiy to'lovlar va boshqa tushumlar hisobiga to'ldirilsa, byudjetning xarajatlar qismida mamlakatning iqtisodiy va ijtimoiy zarur bo'lgan sohalarni ta'minlash va qo'llab-quvvatlash uchun sarflanadi. Shunda byudjetning xarajatlar qismiga, ta'lif, sog'liqni saqlash, madaniyat, sport shuningdek, transport sohasi va boshqa maqsadlar uchun sarflangan byudjet mablag'lariga hisobalanadi.

Xitoya ham boshqa davlatlar singari davlat byudjetidan transport uchun amalga oshiriladigan xarajatlar mavjud bo'lib ular o'z navbatida bir necha turlarga bo'linadi, jumladan, transportda yuklarni tashish, bu o'z navbatida temir yo'llari, avtomobil yo'llari, suv transporti va havo yo'llari transportiga bo'linadi.

#### Xitoy davlat byudjetining xarajatlar tasnifi<sup>1</sup>

<b>Byudjet xarajatlar qismi</b>	<b>O'lchash biriligi</b>	<b>2014 yilning Mart oyida</b>	<b>2014 yilning yanvar- mart oylarida</b>	<b>2013 yilning mart oyi bilan solishtirilganda (% hisobida)</b>
Davlat byudjetining jami daromadlar qismi (qarzdorliklar bo'yicha to'lovatarsiz)	Mlrd. yuan	912,50	11965,04	9,9
Davlat byudjetining xarajatlari (qarzdorliklar bo'yicha to'lovatarsiz)	Mlrd. yuan	1266,75	11468,72	9,3
Shu jumladan,	Mlrd. yuan	123,27	1157,81	11,1
Asosiy ijtimoiy xizmatlar uchun	Mlrd. yuan	200,36	1713,58	4,5
Ta'lif	Mlrd. yuan	60,11	381,66	11,2
Fundamental ta'lif va innovatsion fondlar	Mlrd. yuan	28,85	185,59	9,9
Madaniyat, sport, nashriyotlar	Mlrd. yuan	107,04	1256,08	13,3
Ijtimoiy ta'minot, ishga joylashtirish	Mlrd. yuan	60,85	683,34	13,4
Sog'liqni saqlash	Mlrd. yuan	39,89	246,81	14,1

<sup>1</sup> <http://www.ved.gov.ru/files/images/country/China/2014/july/statet.pdf>

Atrof muhitni himoya qilish	Mlrd. yuan	110,10	954,47	20,5
Shahar va rayonlarning ijtimoiy ehtiyojlari	Mlrd. yuan	124,64	1025,84	8,1
O'rmonlarni tiklash, irrigatsiya	Mlrd. yuan	73,67	759,82	5,5
Transport	Mlrd. yuan	53,91	407,57	10,7
Tabiy resurlardan foydalanish, energetika, axborot texnologiyalar va boshqalar	Mlrd. yuan	6,67	127,91	4,3
	Mlrd. yuan	3,53	25,02	-12,4
Davlat zahiralarini boshqarish				
Moliyaviy nazorat	Mlrd.tonna		44,40	10,0
<b>Transport yuk tashishlar</b>				
Yuklarni tashish	Mlrd. tonna		3,97	1,6
Shu jumladan,	Mlrd. tonna		35,50	11,3
Temir yo'llar orqali	Mlrd. tonna		4,93	7,5
Avtomobillar	Mlrd.tonna		5,58	2,3
Daryo transporti orqali	Mlrd.tonna		7,26	9,1
Havo yo'llari orqali	Mlrd.tonna		3,01	9,1
Portlar orqali yuklarning xarakati	Mlrd.tonna/km		18297,72	7,2
Tashqi savdo yuklari	Mlrd. kishi		40,19	5,6

Yuqoridaagi jadval ma'lumotlarini tahlil qiladigan bo'lsak, unda ko'rishimiz mumkinki, umumiyoq ko'rinishda 2014 yilning 1 choragida Xitoy davlati byudjetining daromadlar qismi xarajatlar qismidan past ko'rsatkichni tashkil etgan. Jami xarajatlar ichida mart oyida transport uchun amalga oshirilgan xarajatlar 73,67 mlrd. yuanni tashkil etsa, bu tabiy resurlardan foydalanish, energetika, axborot texnologiyalar, atrof muhitni himoya qilish, sog'lijni saqlash, madaniyat, sport va nashriyot hamda fundamental ta'lim va innovatsiyalardan yuqori ko'rsatkichni tashkil etgan bo'lsa ushbu ko'rsatkich 2013 yilning mos davriga nisbatan 5,5%ga ko'pligini bildiradi.

Umuman olganda bugungi kunda Xitoy transport sohasida erishgan yutuqlari xar doim ham yuqori ko'rsatkichlarda bo'limgan, masalan mutaxassislar tomonidan Xitoyning 1970 yillardagi va undan keyingi davrdagi transport sohasi tahlil qilinganda quyida keltirilgan tahlillarga erishilgan. Jumladan, 1970-2013 yillarda Xitoyning transport sohasi 435,5 mlrd. AQSh dollarga yoki 91,7 marotabaga o'sganligi mutaxassislar tomonidan e'tirof etib kelinmoqda. Tahlil qilinayotgan davr oralig'ida transport sohasida Xitoyda o'rtacha yillik o'sish ko'rsatkichi 10,1 mlrd. AQSh dollarni yoki 211%ni tashkil etgan bo'lib, Osiyodagi ulushi

10,5%ga o'sgan bo'lsa, Sharqiy Osiyodagi ulushi 20,8%ga o'sgan<sup>2</sup>. 1970-2013 yillar oralig'ida Xitoyda transport aholi jon boshiga 311,9 dollarga o'sgan yoki 53,9 marotabaga o'sishi kuzatilgan. Aholi jon boshiga nisbatan o'rtacha o'sish ko'rsatkichi 7,3 dollarni yoki 122,9%ni tashkil etgan. Mutaxasislar tomonidan Xitoyning transport sohasidagi o'zgarishlar tizimli korrelyatsion-regression modeli tahlil qilingan bo'lib, olib borilgan hisob kitoblarga ko'ra<sup>3</sup>:

$$y=6.166x-12205.647$$

bu erda, y - Xitoy transportining hisobi

x - bu yil,

Korrelyatsiya koefitsienti  $q= 0.804$  va Determinatsiya koefitsienti  $q= 0.647$ ga teng.

1970 yilda Xitoyning transporti 4,8 mld. AQSh dollarni tashkil etgan bo'lsa, dunyoda 9 o'rinni egallagan va dunyo bo'yicha uning ulushi 2%ni tashkil etgan. Shuningdek, 1970 yilda aholi jon boshiga 5,9 dollarni tashkil etgan va dunyo bo'yicha 156 o'rinni egallagan.

Ammo mutaxasislar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarga ko'ra 1970 yilda Xitoyning transporti boshqa aksariyat mamlakatlarning transport sohasiga nisbatan rivojlangan bo'lган, jumladan, Hindiston transporti (2,3 mld. AQSh dollarni tashkil etgan), Janubiy Koreya transporti (0,57 mld. AQSh dollarni tashkil etgan), Myanma transporti (0,14 mld. AQSh dollarni tashkil etgan), Vietnam transporti (0,069 mld. AQSh dollarni tashkil etgan), ammo Yaponiya transportiga nisbatan past ham bo'lган (18,5 mld. AQSh dollar). Shuningdek aholi jon boshiga nisbatan hisoblanganda Xitoyda Myanmaga (5,3 AQSh dollar) nisbatan yuqori bo'lган, Hindistonda aholi jon boshiga nisbatan (4,2 AQSh dollarni tashkil etgan, Vietnamda (1,6 AQSh dollar) tashkil etgan bo'lsa, ammo Yaponiyaga nisbatan (178,7 AQSh dollar) kam bo'lган<sup>4</sup>.

1970 yilda Xitoyning transport sohasini etakchi mamlakatlar bilan ham solishtirganda quyidagi ko'rinish shakllanadi, jumladan, Xitoy transporti AQShga, Yaponiyaga, Sobiq Ittifoq, Germaniyaga nisbatan pastroq ko'rsatkichlarni tashkil etgan. Masalan, AQShda 95,8 mld. AQSh dollarni tashkil etgan, Yaponiyada 18,5 mld. AQSh dollarni tashkil etgan, Sobiq Ittifoqda 18,1 mld. AQSh dollarni tashkil etgan va Germaniyada 13,4 mld. AQSh dollarni tashkil etgan. Aholi jon boshiga nisbatan ham hisoblanganda Xitoyda yuqorida ko'rsatilgan davlatlarda nisbatan past bo'lган, jumladan, AQShda - 456,4 AQSh dollarni tashkil etgan yok 77,4 marotabaga kam, Yaponiyada 178,7 AQSh dollarni tashkil etgan, yoki 30,3 marotabaga, Germaniyada 168,8 AQSh dollarni tashkil etgan, yoki 28,6 marotabaga, Sobiq Ittifoqda 74,8 AQSh dollarni tashkil etgan bo'lsa, 12,7 marotabaga kam bo'lган.

Ammo yillar o'tib ushbu ko'rsatkichlar butkul o'zgardi va Xitoyning jahon transport bozoridagi salmog'i oshdi. Jumladan, 2013 yil ma'lumotlariga ko'ra Xitoyning transporti 440,3 mld. AQSh dollarni tashkil etgan va ushbu ko'rsatkich bilan dunyo bo'yicha 3 o'rinni egallagan, shuningdek dunyoda uning ulushi 7,9%ni tashkil etgan. Shuningdek, 2013 yil xolatiga transport ko'rsatkichi aholi jon boshiga nisbatan 317,8 dollarni tashkil etgan. Shunda mos ravishda boshqa davlatlarga nisbatan solishtirganda Rossiya, Hindiston, Janubiy Koreya, Qozog'iston, Myanma, Vietnam davlatlarining transport ko'rsatkichlariga nisbatan yuqori ko'rsatkichlarni tashkil etgan. Masalan, Rossiyada - 153,4 mld. AQSh dollarni, Hindistonda - 131,6 mld. AQSh dollarni, Janubiy Koreyada - 84,7 mld. AQSh dollarni, Qozog'istonda 22,5 mld. AQSh dollarni tashkil etgan. Aholi jon boshiga nisbatan ham hisoblanganda yuqorida keltirilgan davlatlarga nisbatan yuqori ko'rsatkichlarni tashkil etgan. Jumladan, Myanmada - 154 AQSh dollari, Hindistonda 105,2 AQSh dollari, Vietnamda 70,2 AQSh dollarni tashkil etgan.

Xitoy transportini etakchi yoki lider davlatlar bilan ham solishtirganda ko'rsatkich 1970 yilga nisbatan ancha o'zgargan, jumladan, Germaniyaga nisbatan (308 mld. AQSh dollar) 43%ga ko'p ko'rsatkichni tashkil qilgan bo'lsa AQSh ga nisbatan xali past ko'rsatkichlarda

<sup>2</sup> [http://be5.biz/makroekonomika/transport/transport\\_china.html](http://be5.biz/makroekonomika/transport/transport_china.html)

<sup>3</sup> [http://be5.biz/makroekonomika/transport/transport\\_china.html](http://be5.biz/makroekonomika/transport/transport_china.html).


<sup>4</sup> [http://be5.biz/makroekonomika/transport/transport\\_china.html](http://be5.biz/makroekonomika/transport/transport_china.html)

qolmoqda, jumladan, AQShda - 1260,6 mlrd. AQSh dollarni tashkil etgan yoki 2,9 marotabaga ko'p, Yaponiyada - 508,4 mlrd. AQSh dollar yoki 15,5%.

Aholi jon boshiga nisbatan hisoblanganda ham quyidagi ko'rsatkichlar kuzatiladi, jumladan, Xitoyda Yaponiyaga, AQShga va Germaniyaga nisbatan yuqori sur'atlarni tashkil etgan. Masalan, Yaponiyada 3938,8 dollarni, yoki 12,6 marotaba kam, AQShda 3938,8 AQSh dollarni yoki 12,4 marotaba ham, Germaniyada 3723,5 AQSh dollarni yoki 11,7 marotaba kam ko'rsatkichlarni tashkil etgan.

1970 yilda Xitoyda transport sohasi 4,8 mlrd. AQSh dollarni tashkil etgan bo'lsa 1990 yilga kelib ushbu ko'rsatkich 26,0 mlrd. AQSh dollarni tashkil etgan va ushbu ko'rsatkich 2000 yilga kelib 74,4 mlrd. AQSh dollarni tashkil etib, 2013 yilga kelganda ushbu ko'rsatkich 440,3 mlrd. AQSh dollarni tashkil etgan, ya'ni 1970 va 2010 yillar oralig'idagi o'sishga nisbatan 2010-2013 yil yoki uch yilning ichidagi o'sish ko'rsatkichlari nisbatan yuqori darajalarni tashkil etmoqda.

#### **Xitoy va iqtisodiyoti rivojlangan davlatlarda transport sohasi (mlrd. AQSH dollar hisobida)<sup>5</sup>**



Xitoy iqtisodiyotida avtomobilsozlik sanoati asosiy o'rirlardan birini egallaydi desak mubolag'a bo'lmaydi. Uning faol ravishda rivojlanishi XX asrning 90 yillarida boshlangan. So'nggi yillarda esa Xitoy avtomobilsozlik bo'yicha dunyoda etakchilarga aylangan va mutaxasislarning ta'kidlashlaricha Xitoyning avtomobilsozligi yiliga 20% o'sish ko'rsatkich bilan rivojlanmoqda<sup>6</sup>.

1992 yilga kelib Xitoyning avtomobilsozligi yillik xajmi ilk bora bir millionlik ko'rsatkichga erishgan va ikki millionlik ko'rsatkichga erishish uchun Xitoya unchalik ko'p fursat kerak bo'lindi, ya'ni 2000 yilga kelib Xitoyda avtomobilarni ishlab chiqarish ko'rsatkichi 2 mln. donadan ziyodni tashkil eta boshladi. Undan so'ng esa Xitoy yanada rekord ko'rsatkichga erishdi, ya'ni ko'p emas, ikki yildan so'ng Xitoyda 3 mln. dona avtomobillar ishlab chiqarila boshlandi. Undan keyingi davrlarda esa xar yillik avtomobilarni ishlab chiqarish ko'rsatkichlari bir million donadan ziyodga ortib borish tendentsiyaga ega bo'lgan va 2003 yilga kelib Xitoy yana bir rekord ko'rsatkichga erishdi va 4,44 mln. dona avtomobilarni ishlab chiqarishni boshladi va 2003 yil natijalari bo'yicha Xitoy AQSh, Yaponiya va Germaniyadan so'ng dunyoda to'rtinchi o'rinni egalladi (2.1.2-rasm).

Mutaxasislarning fikricha 2004 yildan so'ng bir muncha o'sish ko'rsatkichlari sekinlashgan bo'lsada, ushbu tendentsiya 2005 yilda ham kuzatilgan bo'lsa undan so'ng 2006, 2007, 2008 yillarda o'sish ko'rsatkichi yuqori sur'atlarni tashkil etdi. Ammo ushbu rasmdagi ma'lumotlarga e'tibor qaratadigan bo'lsak unda ko'rinish turibdiki, 2009 yilda va 2010 yilda juda

<sup>5</sup> [http://be5.biz/makroekonomika/transport/transport\\_china.html](http://be5.biz/makroekonomika/transport/transport_china.html) Ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.


<sup>6</sup> <http://bumafan.ru/articles/negotiations/entry/2143>

katta sur'atlarda o'sish tendentsiyasi kuzatilmoqda va buning sababini mutaxasislar jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining oqibatlaridan biri sifatida deb baholashgan. Ya'ni asosiy ishlab chiqaruvchilar AQShda, Yaponiyada va Evropa davlatlarida avtomobilarning ishlab chiqarish ko'rsatkichi pasayishi hisobiga Xitoy o'zida ushbu ko'rsatkichni maksimal darajaga etkazishga xarakat qildi va tashqi bozorlarning salmoqli qismini narx jihatidan arzon avtomobillar bilan egallahga xarakat qildi.

Xitoyning avtomobilsozligining tarkibida ham jiddiy o'zgarishlar ro'y bera boshlandi buning asosiy sababi Xitoyda ichki bozorninng talablari ko'proq o'rganila boshlandi va e'tibor asosan ichki iste'molchilarga qaratilgani oqibatida jami ulushda engil avtomobilarning ulushi ortib bordi va ularning jami avtomobilsozlikdagi ulushi 51,8%ni tashkil eta boshladi, shu davrda avtobuslarning ulushi 14,7%ni tashkil etgan bo'lsa, yuk avtomashinalarning ulushi 33,5%ni tashkil etgan. Ushbu ko'rsatkichlar bo'yicha Xitoy ilk bora Yaponiyadan ilgariladi va AQShdan keyingi ikkinchi o'rinni egalladi.

2006 yilga kelib Xitoyda 6 322 avtomobil ishlab chiqaradigan korxonalar faoliyat ko'rsatgan va 2006 yilning uch choragida yalpi avtomobil ishlab chiqarish ko'rsatkichi 143 mln. AQSh dollaridan yuqori ko'rsatkichni tashkil etgan. 2007 yilga kelib Xitoyda 8 mln. donada yuqori avtomobillar ishlab chiqarilgan bo'lib ularning 6,4 mln. dan yuqori soni yo'lovchilar uchun mo'ljallangan avtomobillar bo'lgan. 2009 yilga kelib Xitoy dunyoda yirik avtomobil bozoriga ega bo'lgan davlatga aylandi va 13,79 mln. dona avtomobillar ishlab chiqarilgan bo'lib ulardan 8 mln. donasi engil avtomobillar bo'lgan yoki 44,3%, ushbu avtomobillar mahalliy brendlarni tashkil etgan bo'lsa (BYD, Lifan, Chang'an, Geely, Chery, Hafei, Jianghuai, Great Wall, Roewe va boshqalar), qolganlari qo'shma korxonalarda ishlab chiqarilgan, jumladan, Volkswagen, Mitsubishi, General Motors, Hyundai, Nissan, Honda, Toyota va boshqalar.

**Dunyo boyicha ishlab chiqarilgan avtomobilar soni(mln)<sup>7</sup>.**



2010 yilga kelib Xitoyning avtomobilarni ishlab chiqarish ko'rsatkichlari yanada o'sishi kuzatildi va mutaxasislarning ta'kidlashicha 2009 yilga nisbatan ushbu ko'rsatkich 32,4%ga o'sgan va 18,26 mln. dona avtomobilarni tashkil etgan bo'lsa, ular jumlasidan, 13,89 mln. dona engil avtomobillar va 4,36 mln. tijorat shaklidagi avtomobillar bo'lgan. Buning hisobiga dunyo bo'yicha birinchilikni qo'lga kiritish va egallagan xolatni mustaxkamlashga erishilgan bo'lsa ushbu ko'rsatkich hisobiga shuningdek Evropa davlatlaridan ham ilgarilab ketishga erishildi.

2011 yilga kelib Xitoyning avtomobilarni ishlab chiqarish ko'rsatkichi yana 10-15%ga o'sishi kutilgan va dunyo bo'yicha ilk bora 20 mln. dona avtomobilarni ishlab chiqarish ko'rsatkichi bo'yicha rekord ko'rsatkichga erishishi kutilgan bo'lsa, ammo real ko'rinishidagi o'sish 0,84%ni tashkil etgan yoki 18,42 mln. dona. Ulardan yo'lovchilar uchun avtomobillar

<sup>7</sup> <http://www.autocentre.ua/news/autobusiness/kitay-shestoy-god-podryad-stanovitsya-liderom-po-proizvodstvu-mashin-sd-64176.html>

14,48 mln. donani tashkil etgan bo'lsa, - 2010 yilga nisbatan 4,23% o'sgan, tijorat avtomobilari 3,93 mln. donani tashkil etgan va 2010 yilga nisbatan 9,94%ga o'sish kuzatilgan.

### Xitoy, AQSh va Rossiyaning iqtisodiy ko'rsatkichlari to'g'risida ma'lumot<sup>8</sup>

Mamlakatlar	YalMning xajmi (mlrd. AQSh dollari hisobida)	Avtomobilarning ishlab chiqarilishi (mln. dona hisobida)
Xitoy	8227	19,277
AQSh	15685	10,239
Rossiya	2022	2,232

Xitoyning avtomobilsozlikdagi o'sish ko'rsatkichlarining sekinlashuvining sabablaridan biri shundaki, hukumatning makroiqtisodiy chora tadbirlariga bog'liqligi bilan asoslangan.

Ammo ushbu sekinlashish tendentsiyalariga qaramasdan, Xitoy avtomobilsozlikda o'z liderligini saqlab qolishga erishgan. Shuningdek, 2014 yilga kelib Xitoy 23,7 mln. dona avtomobilarni ishlab chiqardi va bu ko'rsatkich 2013 yilga nisbatan 7,3%ga ko'p demakdir<sup>9</sup>.

Xulosa o'rnila shuni aytish mumkinki, yo'l qurilish, infratuzulmalarni shakllantirish, zamonaviy kam xarajat texnologiyalarni joriy qilish va approbatsiyadan o'tkazish, muxandislik va konstrukturlik bo'yicha Xitoy va O'zbekiston o'rtasida ilmiy yangiliklar bilan almashinish va ushbu sohada band bo'lgan olimlar, yosh izlanuvchilar va tadqiqotchilar, namunali va a'lo baholarda o'qib kelayotgan magistratura va bakalavriatura talabalari O'zbekistondan Xitoyning tegishli ilmiy tadqiqot institutlariga, etuk kompaniyalariga malaka oshirish uchun yuborish va shunga mutanosib ravishda Xitoyning etuk olimlarini mamlakatimizga jalb qilish va xalqaro konferentsiyalar tashkil etish, seminar treyninglarni amalga oshirish yoki interaktiv muloqatlarni yo'lga qo'yish va boshqa tadbirlarni faol amalga oshirish va ularning tajribalarini o'rganish uchun sharoitlar yaratish va amalga oshirish transport sohasini yanada rivojlantirishga va uning zamonaviyashuviga xissa qo'shilishi aniq bo'ladi.

<sup>8</sup> Калабеков И.Г. "Россия, Китай и США в цифрах" Справочное издание – М., 2014. стр. 3.

<sup>9</sup> <http://www.autocentre.ua/news/autobusiness/kitay-shestoy-god-podryad-stanovitsya-liderom-po-proizvodstvu-mashin-sd-64176.html>